

BRONXIAL ASTMA KASALLIGI

Toshtemirova Xadiya Baxtiyorovna

Mirova Marhabo Baxriddinovna

Davirova Gulbahor Mamasoliyevna

Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi

Anotatsiya: Bronxial astma yuqumli-allergik kasallik bo'lib, bronxlar muskulaturasi tortishib, qisqarishi natijasida, odamning birdan nafasi qisib, bo'gilib qolishi, keyin yopishqoq balg'am tashashi bilan kuzatiladi.

Kalit so'zlar: Astma, allergiya, bronxlar, surunkali, qo'zg'atuvchi, emfizema, xurujlar.

Bu kasallik yosh tanlamasligi, ayniqsa yosh bolalarda kuzatiladigan surunkali xastaliklar orasida yetakchi o'rinda turishi bilan barchani jiddiy tashvishga soladi. Bronxial astma endi boshlanayotganida bo'g'ilish xuruji bir necha minutdan, bir necha minutgacha davom etadi. Biroq, bemorlar astmatik holatdan bir necha sutka davomida chiqa olmaydigan holler ham ro'y beradi.

Bu kasallikning belgilari quydagilardan iborat: Xastalik kechayu kunduz muntazam yo'tal, bo'g'ilish va nafas chiqarishning qiyinligi, jismoniy harakatlar natijasida hosil bo'ladigan yo'tal, allergenlar bilan muloqotda bo'lganda xurujlarning qo'zg'alganligi hamda kukrak qafasidagi noqulaylik kabi belgilar bilan kechadi. Bunday bemorlarda nafas qisilganda tananing diafragma sohasida kuchli og'riq kuzatiladi. Xurujlar yo'tal tutishi bilan boshlanadi, bronxlar ichki yuzasidagi balg'am chiqgach ancha yengillashadi va bu vaqtda o'pkada gazlar almashinuvi bir muncha sezilarli susayadi. Natijada tana kuchsizlanibgina qolmasdan nutqda muammolar va taxikardiya kelib chiqadi. Kasallik xuruj qilgan vaqtda jismoniy mashqlar qilayotgan bo'lsak va bu mashqlarni zudlik bilan to'xtatmasak xuruj yanada kuchayadi. Ushbu kasallikka jiddiy qarash zarur! Agar o'z vaqtida muolaja qilinmasa bu o'limga ham olib kelishi mumkin.

Xush ushbu kasallik bugungi kunda qanday davolanmoqda ekan?

Bu kasallik bolalarda ikki bosqichda davolanadi. Avvalo kasallikni keltirib chiqaruvchi omillar: allergen, sovuq havo, muhiddagi begona moddalarni aniqlash va vaqtida bartaraf etish. Bundan tashqari kasallikni dori bilan davolash usuli ham mavjud bo'lib, bu dorilardan doimiy va hastalik xuruj qilganda foydalanish mumkin. Bu vaqtda asosan gormanal preparatlar, glukortikoidlar, ingalyasion vositalar, antileykotriyen dorilardan keng foydalanilmoqda. Bolalarda davolash to'g'ri olib borilsa bu kasallik 50 foizgacha tuzalik ketish mumkin.

Kattalarda astma qancha erta aniqlansa, muolajalar shunchalik foydali bo'ladi. Bu kasallik darajasiga qarab , turli dori vositalari va fiziomuolajalar bilan shug'ullaniladi. Branxial astmada ingalyatsion bronxolitiklar, ingalyasion glukokortikoidlar, antilekotriyent dori vositalari yaxshi samara bermoqda. Bemor doimiy ravishda o'zini-o'zi yoki shifokor nazorat qilib turishi maqsadga muvofiqdir. Bunday bemorlar avvalo allergenlarda o'ta ehtiyot bo'lishi lozim, bemorlar istiqomad qiluvchi xonadonlar ozoda saqlanishi, atrofda chang zarralari, hayvonlar kimyoviy vositalar bo'lmasligi lozim. Ammo bularga amal qilinmaganda Bronx devorlari yallig'lanishi oldini olishi, bu jarayonni bir meyorda ushlab turishi talab etiladi. Astma ko'proq uyqu paytida namoyon bo'ladi, bunda nafas olish yo'llari sezilarli ortib , o'pkaning qisqarishi sezilarli ortadi. Ushbu hastalik bilan og'rigan bemorlarga kamiga yilida ikkibor tabiat qo'ynida joylashgan oromgohlarda sihatgohlarda davolanishlari ayniqsa archalar bilan o'ralgan joylarda bo'lishlarini tavsiya qilgan bo'lardik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. [https:// mymedic.uz/](https://mymedic.uz/)
2. <https://uz.wikipedia.org/>